

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

MARKETING
INNOVATSIYA
BRENDING
SAVDO
RAQAMLI
TADQIQOT
BIZNES



№5 - SON

2025-YIL, MAY

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 582 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ASSESSMENT OF E-COMMERCE'S ROLE IN ECONOMIC DEVELOPMENT	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Karimova Shirin Zoxid qizi, Sodiqova Dilafruz Zoxid qizi	
BIG DATA И АНАЛИТИКА ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА	26
Маликов Шохрух Шокирович	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA USTUVOR ILMIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR	36
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK VA “YASHIL” IQTISODIYOT UYG‘UNLIGIDA “YASHIL” EKSPORT MODELINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	46
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ VA SHAHARLARDA ZAMONAVIY SAVDO SHAHOBCHALARINI RIVOJLANISHI VA ULARDA XIZMAT KO‘RSATISH MADANIYATINI OSHIRISHDA MARKETING TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	55
Soliyeva Gulbahor Axmadjanovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ОБМЕНА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ	62
Мухитдинов Алим Изатуллаевич, Халилова Нодира Абдухамид кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	77
Saidqulova Firuza Farmonovna	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA EKSPORT MARKETINGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	84
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENTNI O‘RNI	91
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
MARKETINGDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA TAHDIDLARI	102
Jo‘rabayev Ibragim	
O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI	109
Jo‘rayeva Gulzira Ilhomjon qizi	
NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH	116
Karimjanova Ra‘noxon Maxmudovna	

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOXITIDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ixomovna, Usmanov Shaxzod Shoxruxovich	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	135
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ	142
Солиева Гулбахор Ахмаджановна	
LOYIHA BOSHQARUVIDA QO‘LLANILADIGAN USULLARNING TURLARI VA TAVSIFI.....	150
Po‘latov Shahron Axmedovich	
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIOMAHSULOTLAR YETISHTIRISHNING HOLATI VA IQTISODIY SALOHİYATI.....	162
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	168
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barhayotjon Azizjon o‘g‘li	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ	174
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
“AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE BUSINESS STABILITY OF INDUSTRIAL AND ENERGY ENTERPRISES: A COMPREHENSIVE CASE STUDY OF JV UZCHASYS’ LLC”	182
Mahsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
QORAQALPOG‘ISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	188
Uralova Matlyuba	
O‘ZBEKISTON QURILISH SANOATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR: HOLAT VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	194
Saidov Mash‘al Samadovich, Karimov Inomjon Ortikbaevich	
DIGITAL MARKETING FOR THE GREEN ECONOMY: TRENDS AND INNOVATIONS	206
Salayeva Quvonchoy Rustam qizi	
BLOKCHAYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QIYMAT YARATISH RAQAMLI ZANJIRLARINI SHAKLLANTIRISH	214
Samadov Sevinchbek Dusbobo o‘g‘li	
MOSLASHUVCHAN (AGILE) VA YASHIL MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNI ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	224
Umarov Bexzod Batirovich	

MINTAQA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	232
Masharipova Manzura Alimbayevna	
TELEVIZYON REKLAMALARIDA RATSIONAL JOZIBADORLIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	239
Safarov Alisher Yunusaliyevich	
RAQAMLI MARKETING VOSITALARIDAN B2B BOZORIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	250
Samadov Askarjon Nishonovich, Shovdirov Toxirmalik Nafasovich	
MENEJMENT FANIDA BOSHQARUV MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	262
Toshimov Azizbek Hakimovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BREND QIYMATINI YARATISHNING KONSEPTUAL JIHATLARI	270
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA YONDASHUVLARI	278
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI HIMOYALASHDA RISKLARNI BOSHQARISH YO'LLARI	288
Absamatov Anvar Ergashevich	
TIJORAT BANKLARIDA DIVIDENT SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI.....	296
Aliyev G'ulomnozir Maxamatjonovich	
O'ZBEKISTON METEOROLOGIYA XIZMATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	304
Anvarova Muqaddas Mahammadjanovna, Abduganiyeva Mavjuda Asattulayevna	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYAVIY XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	311
Babamatov Tolib Hakimovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI	318
Baxtiyor Negmatovich Navruz-zoda, Nazarova Gulruh Umarjonovna	
FARMASEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORIDA KOMPANIYANING MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	326
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
MAHALLIY VA XORIJIY TURISTLAR UCHUN O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV TURIZM TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	334
Egamnazarov Khusniddin	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS.....	347
Shoakhmedova Nozima Khairullaevna, Yusupova Dilbar Mirabidovna	

QISHLOQ XO‘JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	353
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI	362
Yusupov Aziz Shuhratovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМИ ОТХОДАМИ В СИСТЕМЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ И САНИТАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.....	369
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
RAQAMLI CRM TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTON BIZNES MUHITIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI	380
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
COST OF CAPITAL. AS A CASE OF UZBEKISTAN COMPANY	391
Khurshid Khudoykulov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI.....	399
Musaxonov Rustam Musaxon o‘g‘li	
KORXONA MAHSULOTLARI ELEKTRON SAVDOSINI BOSHQARISH STRUKTURASI	406
Tuychiyev Shavkatjon Shokirali o‘g‘li, O‘ktamov Xamidillo Xabibillo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVLARINI RAQAMLIGA O‘TKAZISH: TAJRIBASI VA ISTIQLABLARI.	414
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
ELEKTRON TIJORATDA MIJOZGA YO‘NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARI	419
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RAG‘BATLANTIRISH: JAHON TAJRIBASI TAHLILI	429
Hulkar Turobova, Shahlo Musulmonova	
TAX DISCIPLINE AND ITS INFLUENCE ON FINANCIAL SECURITY	441
Shamsiddin Allayarov Amanullaevich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA STRATEGIK MENEJMENTNING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING SKORING TIZIMI	450
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ	460
Бадалова Лола Борисовна	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СТОИМОСТЬЮ КОМПАНИИ	468
Уралов Акбарали Бабаназарович	
STAGES OF FOOD BRAND FORMATION IN THE FOOD MARKET	478
Eshmatov Sanjar Azimkulovich	

ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI SAMARALI QO‘LLASH USULLARI	489
Baxromov Xudoyor Xabibullo o‘g‘li	
ULGURJI SAVDODA MARKETING LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	497
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
MOLIYAVIY XAVFSIZLIK SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK VA UNING SAMARADORLIGI.....	511
Axmedov Bexzod Shuxratovich	
MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANISHI VA UNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY-IQTISODIY ASOSLARI	518
Xakimdjanova Dildora Kamilevna	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	529
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	535
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
INNOVATSION RIVOJLANISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	541
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI.....	547
Astanov Sherzod Rustamovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV QARORLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA QIYMATGA ASOSLANGAN BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH	556
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
MILLIY TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RAQOBATBARDOSH QILISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIYALAR	564
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	571
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	

SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Muxtarov Maxmudjon Marifovich

Andijon davlat texnika instituti
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti i.f.d (PhD)
E-mail: m.m.muxtorov@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxonalarda kapital mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda investitsiya resurslarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda kapital qo‘yilmalarning samaradorligini baholash usullari, korxonalarda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari o‘rganilgan. Maqolada kapital mablag‘lardan foydalanish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilingan, hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan innovatsion, tashkiliy va moliyaviy mexanizmlar asosida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Muallif samaradorlikni oshirish bo‘yicha aniq tavsiyalar va amaliy mexanizmlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: Kapital mablag‘lar, investitsiya samaradorligi, sarmoya siyosati, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik, korxona faoliyati, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, foyda, rentabellik.

Аннотация

Данная статья посвящена вопросам повышения эффективности использования капитальных средств на предприятиях. В ней проанализированы роль и значение инвестиционных ресурсов в обеспечении устойчивого развития национальной экономики. В исследовании рассмотрены методы оценки эффективности капитальных вложений, выявлены существующие проблемы на предприятиях и пути их устранения. Системно проанализированы факторы, влияющие на эффективность использования капитала, а также разработаны практические предложения и рекомендации на основе инновационных, организационных и финансовых механизмов, направленных на повышение эффективности. Автор предлагает конкретные рекомендации и практические механизмы для её улучшения.

Ключевые слова: основные фонды, эффективность инвестиций, инвестиционная политика, инновации, экономическая эффективность, деятельность предприятия, экономика, производство, прибыль, рентабельность.

Abstract

This article is devoted to the issues of increasing the efficiency of capital use in enterprises, and analyzes the role and importance of investment resources in ensuring the sustainable development of the national economy. The study examines methods for assessing the efficiency of capital investments, existing problems in enterprises and ways to eliminate them. The article systematically analyzes the factors affecting the efficiency of capital use and develops practical proposals and recommendations based on innovative, organizational and financial mechanisms aimed at increasing efficiency.

The author offers specific recommendations and practical mechanisms for increasing efficiency.

Keywords: capital funds, investment efficiency, investment policy, innovation, economic efficiency, enterprise activity, economy, production, profit, profitability

KIRISH

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bozor munosabatlarining chuqurlashib borishi, raqobat muhitining kuchayishi hamda resurslardan samarali foydalanish talablarining oshishi korxonalar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, iqtisodiy o'sishning muhim manbai bo'lgan kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi har bir xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar korxonalarda kapital mablag'lardan samarali foydalanish masalasini yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2024-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 365,1 trln so'm investitsiya yo'naltirilgan. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 8,5 foizga oshganini ko'rsatadi [14]. Shu bilan birga, 2024-yilda iqtisodiy o'sish sur'atlari 6,0 foizga teng bo'lgan.

Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatdagi investitsiya muhitining yaxshilanishi va kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish ahamiyati yuqoriligini ko'rsatib, bunga sanoat korxonalarida kapital qo'yilmalardan foydalanish holati, ularning iqtisodiy natijalarga ta'siri va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash vazifalari muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarida kapital mablag'lardan samarali foydalanish masalasi iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, bu sohada ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xalqaro iqtisodchi olimlardan P. Samuelson va V. Nordxaus kapital shakllanishi, uning iqtisodiy o'sishga ta'siri haqidagi nazariyalari orqali kapitalning turlari, to'planishi va iqtisodiyotdagi roli haqida mustahkam nazariy asos yaratganlar [3]. Ularning fikricha, kapital — bu ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan vositadir va unga investitsiya shaklidagi sarmoyalar iqtisodiy faollikni oshiradi.

I. Fisher o'zining "Time preference" nazariyasida kapital mablag'larning vaqt omili bilan bog'liq samaradorligini va kelgusi foydani baholashda diskontlash usulining ahamiyatini ta'kidlaydi [13]. Bu yondashuv tadqiqotda kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samarasini aniqlash imkonini berish bilan birga, mavjud foydalanilmagan ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash uchun muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodchilaridan A. Vaxabov va Q. Abdullaevlar investitsion muhit, kapital resurslar va ularni taqsimlashning iqtisodiy jihatlarini o'rgangan. A. Vaxabov investitsiya loyihalarini baholash, kapital sarmoyalarning ichki qaytarish me'yori va ularni tahlil qilish uslublarini keltirib o'tgan bo'lsa [7], Q. Abdullaev sanoat korxonalarida investitsiya strategiyasi, moliyalashtirish manbalari va ularning

samaradorligini oshirish mexanizmlarini tavsiflagan [2]. Uning ishlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va davlat dasturlari orqali kapital jalb qilish masalalariga keng o'rin berilgan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda V. G. Kim [4], A. Gjalgasova [5], L. Blyaxman [6], I. A. Gunina, Yu. P. Lyutova [8] va R. J. Kurbanovlar [12] innovatsiya va investitsiya omillarining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini innovatsion jozibadorlik, raqamli infratuzilmani rivojlantirish (blok-cheyn), innovatsion texnologiyalar bilan ishlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan inson resurslari (doing business), ta'lim va malaka, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasi ta'siri va kapital mablag'lardan foydalanish holati asosida tadqiq etganlar. Yuqoridagi tadqiqotchilar ishlab chiqarish samaradorligini iqtisodiy siyosat, geografik va iqtisodiy omillar, infratuzilma, kapital mablag'lar, innovatsiya, ishlab chiqarishni tashkil etish va bozor omillari asosida baholagan. Ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashni yuqoridagi xususiyatlari bilan birga, mahsulotlar birligi uchun sarflanayotgan kapital resurslar o'zgarishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy usullarini qo'llanishi va samarali talab asosida faoliyatni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fikrimizcha, sarflangan kapital mablag'lar hisobiga olingan natija, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasi va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish samaradorlikning bosh omili hisoblanadi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish asosida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, innovatsiyalarni shakllantirish va ularni amaliyotga qo'llash muddatini qisqartirish, ishlab chiqarish texnologiyalarini bozor talabiga moslashtirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish zarur.

METODOLOGIYA

Sanoat korxonalarida kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholashda texnologik samaradorlikni aniqlash talab etiladi. Bu ko'rsatkichni baholashda mavjud ishlab chiqarish vositalarining holati hamda ularning yangilanish darajasini hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu yondashuv texnologik jarayonlarning samaradorligini aniqlashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar emas, balki ishlab chiqarish infratuzilmasining holati va texnik qayta jihozlash darajasini ham qamrab oladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari holatini kompleks baholash orqali texnologik yangilanish jarayonlarining samaradorligini to'liq qamrab oladigan tahlilni amalga oshirish imkoni yaratiladi. (1-formula).

$$Ts = \frac{Kyar + Kes + Kyan}{3} \quad (1)$$


Bunda: Kyar-jihozlarning yaroqlilik koeffitsiyenti; Kes-asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti; Ky-asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti.

TAHLIL VA NATIJALAR

Texnologik samaradorlikni baholash sanoat sohalarida, xususan to'qimachilik sanoatida, ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va modernizatsiya jarayonlarini oqilona boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Baholashning iqtisodiy, nisbiy va

texnik usullari orqali turli jihatlardan tahlil qilinadigan texnologik samaradorlik ko'rsatkichlari mavjud ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish holatini, xarajatlar o'zgarishini va ishlab chiqarishdagi sifat o'zgarishlarini namoyon etadi.

Milliy iqtisodiyotda sanoat sohasini rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirishni baholash uchun kapital sig'imi ko'rsatkichini baholash talab etiladi. Mamlakatda va Andijon viloyati iqtisodiyotida kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligi o'zgarishini quyidagi 1-rasm asosida ham ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi sanoati va Andijon viloyati sanoati bo'yicha kapital sig'imi ko'rsatkichi dinamikasi¹

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti bo'yicha kapital sig'imi 2015-yilda 0,26 koeffitsiyentni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 0,34 koeffitsiyentga yetgan. Bu mamlakatda investitsion faoliyat o'sishini va kapital resurslardan foydalanish darajasining o'sganini ko'rsatadi. Andijon viloyati iqtisodiyoti bo'yicha kapital sig'imi 2015-yilda 0,14 koeffitsiyentni tashkil etgan va 2024-yilda 0,31 koeffitsiyentga yetgan. Bu o'sish 2,2 barobarni tashkil etib, hududdagi iqtisodiy faollik va investitsion jozibadorlikning sezilarli darajada o'zgarganligini tasdiqlaydi.

Mamlakat sanoat tarmog'ida kapital sig'imi davriy oraliqda 0,45 koeffitsiyentdan 0,95 koeffitsiyentgacha o'zgargan bo'lsa, viloyat sanoat tarmog'ida kapital sig'imi 2015-yilda 0,20 koeffitsiyent bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 0,31 koeffitsiyentga yetgan. 2021-yilda eng yuqori ko'rsatkich (0,31) kuzatilgan, keyingi yilda kamayishga qaramay, 2024-yilda yana o'sish qayd etilgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari mamlakat va hudud miqyosida investitsion jarayonlar va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Andijon viloyatidagi yuqori sur'atdagi o'sish hududdagi sanoat salohiyatining oshishi va innovatsion jarayonlarning faollashuvi bilan izohlanadi. Bu iqtisodiyot yoki tarmoqdagi kapital qo'yilmalar hajmining ortganini, shu bilan birga ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik bazaning holati va investitsion faollikni

¹ Muallif ishlanmasi

baholash zarurligini ko'rsatadi.

Bu o'zgarishlarga quyidagi omillar o'z ta'sirini ko'rsatgan:

1. sanoat infratuzilmasining rivojlanish holati, yangi sanoat korxonalarining tashkil etilishi, texnologiyalarni modernizatsiya qilish hamda qayta jihozlash jarayonlari kapital sarfining ortishi;

2. xorijiy investitsiyalarni jalb etish natijasida sanoatda investitsion faollikning kuchayganligi;


3. texnologik bazaning yangilanishi va boshqalar.

Kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholashda mamlakat iqtisodiyoti, muayyan hududda kiritilgan mablag'larning natijaviyligini baholash bilan birga, sanoat korxonalari faoliyatida sarflanayotgan mablag'lardan foydalanish natijalarini ham tahlil etish zarur (1-jadval).

1-jadval.

«Skorton tekstil» MCHJda kapital mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari o'zgarishi¹.

№	Ko'rsatkichlar	2015-y.	2017-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1	Kapital sig'imi (so'm)	0,61	0,31	0,56	0,40	0,07	0,11	0,11
2	Kapital sig'imi xorijiy investitsiyaga nisbatan (so'm)	0,028	0,024	0,113	0,079	0,013	0,019	0,018



2-rasm. «Skorton tekstil» MCHJda texnologik samaradorlik ko'rsatkichlari dinamikasi²

Kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligini Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan «Skorton tekstil» MCHJning 2015–2024-yillar davomidagi statistik ma'lumotlari asosida tahlili o'zgaruvchan bo'lgan. Kapital sig'imi amaliyotda mahsulot birligiga sarflanayotgan mablag' o'zgarishini ifodalaydi. «Skorton tekstil» MCHJda kapital sig'imi 2015-yilda 0,61 so'm bo'lib, 2022-yilda 0,07 so'mgacha pasaygan. Ya'ni, kapitaldan foydalanish samaradorligi ortgan, lekin 2023–2024-

¹ «Skorton tekstil» MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

² «Skorton tekstil» MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

yillarda 0,11 soʻmda barqarorlashgani ushbu dinamikaning cheklangan darajada ekanini ham anglatadi. Korxonada kapital mablagʻlardan foydalanish natijalariga bevosita mavjud ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish holatining taʼsiri yuqori boʻlib, korxonada bu oʻzgarishlarni texnologik samaradorlik koʻrsatkichi orqali baholash talab etiladi (2-rasm).

“Skorton tekstil” MCHJda texnologik samaradorlik koʻrsatkichi 2024-yili 0,46 koeffitsiyentga teng boʻlgan boʻlsa, 2015-yili esa 0,39 koeffitsiyentni tashkil etgan.

$$Ts = \frac{Kyar+Kes+Kyan}{3} = Ts = \frac{0,82+0,33+0,22}{3}=0,46 \quad (2024-yil uchun)$$

Bunga yaroqlilik koeffitsiyenti oxirgi yili 0,82 koeffitsiyentni tashkil etishi bevosita taʼsir koʻrsatgan boʻlib, bu koʻrsatkich asosiy vositalarning yaxshi holatda ekanligini va uzoq muddatli foydalanishga yaroqliligini koʻrsatadi. Bu koʻrsatkich 2015-yildagi 0,62 koeffitsiyentga teng boʻlgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonada yangilanish koeffitsiyenti pastligi va jihozlarning yaroqlilik holati bu koʻrsatkich oʻzgarishiga bevosita taʼsir koʻrsatgan. Korxonalarda yangilanish koeffitsiyentini oshirish uchun texnologiyalarga sarmoya kiritishni koʻpaytirish va yangi uskunalarni joriy etishga koʻproq eʼtibor qaratish zarur. Shu bilan birga, asosiy vositalarni yangilash va texnologik samaradorlikni oshirish uchun korxonalar iqtisodiy yordam yoki sarmoya jalb qilishga eʼtibor qaratishlari kerak. Korxonada zamonaviy avtomatizatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish asosida texnologik samaradorlikni oshirish imkoniyati yuqori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

- 1) Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “”2022–2026-yillarga moʻljallangan “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida””gi farmoni.
- 2) Abdullaev Q. Korxonalarda investitsiya faoliyatini boshqarish. – Toshkent, 2020. – 180 b.
- 3) Самуэлсон П., Нордхаус В. Экономика. – М.: Вилямс, 2009. – 864 с.
- 4) V. G. Kim. Innovatsion texnologiyalar asosida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019-y. – 11–13-betlar.
- 5) A. G. Allayeva. Yoqilgʻi-energetika kompleksi korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018-y. – 7–11-betlar.
- 6) Бляхман Л. С. Политико-экономическая сущность новой индустриализации // Новая индустриализация России: теоретические и управленческие аспекты. – СПб.: Рост, 2014. – С. 9.

- 7) Вахабов А. Инвестицион фаолият ва унинг иқтисодий самарадорлиги. – Т.: Иқтисодиёт, 2018. – 216 б.
- 8) И. А. Гунина, Ю. П. Лютова. Оценка эффективности использования основного капитала промышленного предприятия // Журнал Экономинфо. – 2020. – Т.17. – №1. – С. 22–26.
- 9) Marifovich M. M. (2023). The Effect of Product Diversification on the Economic Efficiency of Industrial Enterprises. Deutsche Internationale Zeitschrift für Zeitgenössische Wissenschaft, (68).
- 10) Muxtarov M. (2023). Mahsulotlarni diversifikatsiyalash asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot va ta’lim, 24(5), 274–278.
- 11) Marifovich M. M. (2022). Means to Increase Efficiency in Industrial Production. Confrencea, 6(6), 104–107.
- 12) R. J. Kurbanova. Servis korxonalarini modernizatsiyalash va ularda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish (Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalari misolida) mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019-y. – 16-bet.
- 13) Fisher I. The Rate of Interest. – New York: Macmillan, 1907.
- 14) O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
- 15) Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**